

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025

APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
193 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	



TERMINOLOGIYA VA ILMIY TERMINOLOGIYA XUSUSIDA

Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna

BuxMTI tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida terminologiya va ilmiy terminologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Tadqiqotda terminlarning mazmuni, tuzilishi va fanlararo aloqadagi roli tahlil qilinib, ularning aniqlik, barqarorlik, iqtisodiylik va internatsionallik kabi xususiyatlari asosida baholandi. Oygen Vyuster, D.S. Lotte, H. Felber va V.N. Lopatov kabi yetuk mutaxassislarning yondashuvlari asosida terminologiya fani sifatida shakllanishi va ilmiy kommunikatsiyadagi ahamiyati ochib berildi. Shuningdek, milliy ilmiy terminologiya tizimini shakllantirish va boyitish zaruriyati asoslab berildi. Maqola ilmiy uslubda yozilgan bo'lib, tilshunoslik, tarjimashunoslik va fanlararo tadqiqotlar uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: terminologiya, ilmiy termin, standartlashtirish, fanlararo aloqa, milliy til, Vyuster, Felber.

Abstract: This article explores the theoretical and practical dimensions of terminology and scientific terminology in the context of modern scientific and technological advancement. The study analyzes the meaning, structure, and role of terms in interdisciplinary communication, highlighting their key features: precision, stability, economy, and internationalism. Special attention is given to the contributions of E. Wüster, D.S. Lotte, H. Felber, and V.N. Lopatov to the formation of terminology as a scientific field. The necessity of developing a comprehensive national scientific terminology system is substantiated. Written in an academic style, the article offers both theoretical insights and practical implications for linguistics, translation studies, and interdisciplinary research.

Keywords: terminology, scientific term, standardization, interdisciplinary communication, national language, Wüster, Felber.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические и прикладные аспекты терминологии и научной терминологии в условиях современного научно-технического прогресса. Исследование анализирует содержание и структуру терминов, их функции в междисциплинарной коммуникации, а также ключевые характеристики: точность, устойчивость, экономичность и интернациональность. Особое внимание уделено вкладу таких учёных, как Э. Вюстер, Д.С. Лотте, Х. Фельбер и В.Н. Лопатов в формирование терминологии как науки. Обоснована необходимость развития национальной научной терминологической системы. Работа написана в научном стиле и представляет интерес для специалистов в области лингвистики, терминоведения и междисциплинарных исследований.

Ключевые слова: терминология, научный термин, стандартизация, междисциплинарность, национальный язык, Вюстер, Фельбер.



KIRISH

Zamonaviy fan va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir sharoitda tilning ilmiy-amaliy sohalaridagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ilmiy fikrni aniq, qisqa va tushunarli shaklda ifodalash zamonaviy ilmiy muloqotning ajralmas talabiga aylanmoqda. Bunday talablarga javoban paydo bo'lgan maxsus leksik birliklar – terminlar, ularning tizimli majmuasi – terminologiya, nafaqat tilshunoslikning muhim sohasi, balki barcha fan yo'nalishlarida samarali kommunikatsiyani ta'minlovchi vosita sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Til faqat muloqot vositasi emas, balki bilim, fan, madaniyat va texnologiyalarning rivojlanishida asosiy vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida yuzaga kelayotgan yangi tushunchalar, hodisalar va jarayonlarni ifodalash uchun aniq, mazmunli va universal so'zlarga ehtiyoj ortmoqda. Shu sababli terminologiya fani tilshunoslik, tarjimashunoslik, fanshunoslik hamda boshqa sohalarida markaziy ilmiy mavzulardan biriga aylangan.

Terminologiya — muayyan fan sohasi, kasb yoki amaliy faoliyat doirasida qo'llaniladigan atamalar tizimi bo'lib, ularni o'rganadigan mustaqil ilmiy yo'nalish hamdir. Terminologiya nafaqat tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ixtisoslashgan sohalarida bilim uzatish, izchil ilmiy muloqotni tashkil etish va fanga oid anglashuvni standartlashtirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda har qanday soha mutaxassisi, ayniqsa ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanuvchi olimlar uchun terminologik savodxonlik zaruriy ko'nikmaga aylangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Terminologiyaning fan sifatida shakllanishi avstriyalik olim O.V. Nubasov va rus olimi D.S. Lotte tomonidan 1930-yilda e'lon qilingan dastlabki ilmiy ishlar bilan bog'liq. Tarixiy manbalarga tayanadigan bo'lsak, lug'atshunoslik sohasi bo'yicha bir qator muhim asarlar muallifi bo'lgan, terminshunoslik maktabining asoschilaridan sanaluvchi Oygen Vyuster (Eugen Wüster) va rus terminologi Dmitriy Semenovich Lotte ushbu yo'nalishning shakllanishiga asos solgan. Ular 1930-yilda terminologiyaga oid ilk ilmiy ishlarini chop etgan¹.

Oygen Vyuster (Avstriya) – “Terminologiya fanining otasi” sifatida tanilgan bo'lib, zamonaviy terminologiya fanining nazariy asoslarini yaratgan. Uning ta'kidlashicha, terminologiya mustaqil ilmiy soha bo'lib, uning asosiy vazifasi atamalarni yaratish, tizimlashtirish va standartlashtirishdan iborat². Vyuster terminlarni logik va ongli asosda shakllantirishni, ya'ni tushunchalar ierarxiyasiga tayangan holda atamalar tizimini yaratishni taklif etgan. Uning nazariy qarashlari asosida Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan terminologiyaga oid bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Mashhur terminolog olim Xelmut Felber (Helmut Felber, Avstriya) tomonidan 1979-yilda YuNESKO va Vena universiteti hamkorligida tayyorlangan Terminology Manual nomli qo'llanma ushbu sohadagi muhim ilmiy yutuqlardan biridir. Felber Vyusterning izlanishlarini davom ettirib, amaliy terminologiya konsepsiyasini ilgari surgan. Uning fikricha, terminologiyani ishlab chiqarish, fan, texnologiya va ta'lim sohalarida tatbiq etishga tayyor holatda shakllantirish zarur. Felber terminologiyaga pragmatik yondashuvni ilgari surib, uni amaliyotda qo'llashga qulay va aniqligi bilan ajralib turuvchi vosita sifatida ko'radi.

Rus olimi V.N. Lopatov esa terminologiyani tilshunoslikning bir bo'lagi sifatida emas, balki mustaqil fanlararo yo'nalish sifatida ko'rib chiqadi. Unga ko'ra, terminlar sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlarga ega bo'lib, ular tilning barcha darajalarida faol ishlatiladi. Lopatov ilmiy uslubda atamalarning til normalari va qonun-qoidalar asosida shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ilmiy-analitik yondashuv asosida mavjud adabiyotlar, terminologiyaga oid nazariy manbalar va olimlarning qarashlari kontent tahlil usuli orqali o'rganildi. Ma'lumotlar tarixiy-mukammal tahlil qilinib, ilmiy terminlarning shakllanishi va qo'llanilishi xususida konseptual mulohazalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Terminologiya har qanday fan sohasining nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. Uning asosiy maqsadi – bilimni aniq, tizimli va universal shaklda ifoda etishdir. Har bir millat o'z milliy terminologiya tizimini shakllantirmas ekan, u fan va texnologiya sohasida mustaqil rivojlanishga erisha olmaydi. Shu sababli, terminologiya fani nafaqat tilshunoslar, balki barcha soha mutaxassislari uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

1 Г.Хожиева. Санъатга оид терминларнинг лексик-семантик ва миллий-маданий таҳлили (француз ва ўзбек тиллари мисолида). Бухоро, 2022. 14 б.

2 Eugen Wüster. Introduction to the General Theory of Terminology and Terminological Lexicography. Springer, Wien 1979

Terminologiya (lotincha *terminus* – “chegara”, “aniqlik”) – ma’lum bir fan, kasb yoki amaliy faoliyat doirasida qo’llaniladigan atamalar tizimi hamda ushbu tizimni o’rganadigan fan sohasidir. U ikki asosiy yo’nalishda rivojlanadi: birinchisi – amaliy yo’nalish bo’lib, fan sohalariga oid atamalarni yaratish, tizimlashtirish, tarjima qilish va standartlashtirish jarayonlarini o’z ichiga oladi; ikkinchisi – nazariy yo’nalish bo’lib, terminlarning tuzilishi, ma’nosi, funksiyasi va tarixiy taraqqiyotini o’rganadi.

Terminlarni yaratishda bir necha asosiy usullar mavjud bo’lib, ular qatoriga semantik tarjima asosidagi kalkalash (masalan, *input device* → *kiritish qurilmasi*), fonetik o’zlashtirish (*computer* → *kompyuter*), qisqartmalar (*AI* – *sun’iy intellekt*) va milliy tilda yaratilgan neologizmlar (*ishlatuvchi* – *polzovatel*) kiradi.

Terminologiya fan sifatida asosan XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo’lib, uning nazariy asoslari turli mamlakatlardagi nufuzli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Turli nazariy yondashuvlarga qaramay, dunyo olimlarining umumiy xulosasiga ko’ra, terminologiya – fan va tilni bog’lovchi konseptual ko’priq bo’lib xizmat qiladi; terminlar esa faniy tushunchalarni ifodalash uchun aniq va standart vosita sifatida qaraladi; milliy tillar o’z terminologik tizimini shakllantirish orqali ilm-fan sohasida mustaqil va samarali faoliyat yurita oladi.

Ilmiy terminologiya esa muayyan fan sohasidagi tushuncha, jarayon, hodisa yoki obyektlarni aniq va qisqa shaklda ifodalovchi maxsus atamalar majmuasidir. U nafaqat fanni ifodalovchi vosita, balki ushbu fanning ichki tuzilmasini tashkil etuvchi asosiy komponent sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy terminologiya ilmiy matnlar va kommunikatsiyada aniqlik, tizimlilik, universallik va tushunarlilikni ta’minlaydi. Bunday terminlar odatda faqat bitta ma’noga ega bo’lib, boshqa kontekstlarda ishlatilmaydi. Ular ma’lum ierarxik va semantik bog’liqlik asosida tizimlashtiriladi.

Ilmiy fikrni aniq ifodalash, ilmiy hamjamiyatda umumiy anglashuvni shakllantirish, turli tillardagi ilmiy axborotni tarjima qilish hamda uni o’zlashtirishni yengillashtirish – bularning barchasi ilmiy terminologiyaning funksional vazifalaridandir.

Bundan tashqari, ilmiy terminlar muayyan mezonlarga javob berishi zarur: birinchidan, aniqlik – termin bir ma’noli va tushunarli bo’lishi lozim; ikkinchidan, barqarorlik – termin uzoq vaqt davomida o’zgarmasdan qo’llanilishi kerak; uchinchidan, sohaviylik – har bir termin muayyan fan doirasiga tegishli bo’lishi kerak; to’rtinchidan, iqtisodiylik – so’z ifodasi lo’nda va ixcham bo’lishi zarur; beshinchidan, internatsionallik – termin xalqaro miqyosda tan olinadigan va tushunarli bo’lishi maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy terminologiyaning ushbu xususiyatlarini quyidagi misollar orqali izohlash mumkin: “gipoteza” termini ilmiy taxminni bildiradi, “atom” esa moddaning eng kichik bo’linmas birligini anglatadi; “ferment” biologik soha terminidir, “trigonometriya” esa faqat matematikaga xos termin hisoblanadi. Terminlar o’z vaqtida va ehtiyotkorlik bilan yangilanishi mumkin, biroq ular ko’p hollarda barqaror qo’llaniladi. “Atom” kabi ko’plab terminlar ingliz, o’zbek va fransuz tillarida bir xil yoki o’xshash shaklda uchraydi, bu esa internatsionallik mezonining amaliy ko’rinishidir. Shuningdek, terminlar o’zaro bog’liq ierarxiyada tizimlashadi: masalan, *grammatika* → *morfologiya* → *fe’l* → *zamon formalari*. (1-jadval)

1-jadval. Terminologiya va ilmiy terminologiya: tahliliy jadval.

Ko’rsatkichlar	Tahlil	Istiqbolli tomoni
Terminologiyaning asosiy vazifasi	Bilimni aniq, tizimli va universal shaklda ifodalashni ta’minlaydi	Ilm-fan, ta’lim va texnologiyalar o’rtasidagi muloqotni soddalashtiradi
Ilmiy terminlarning yaratilish usullari	Kalkalash, fonetik o’zlashtirish, qisqartma va neologizmlar asosida yaratiladi	Yangi tushunchalar uchun mos terminlar ishlab chiqishni jadallashtiradi
Ilmiy terminlarning xususiyatlari	Aniqlik, barqarorlik, iqtisodiylik, sohaviylik, internatsionallik, tizimlilik	Ilmiy muloqotda aniqlik va tushunarlilikni ta’minlaydi
Fanlararo muloqotdagi roli	Ilmiy tushunchalarni standart asosda ifodalab, anglashuvni osonlashtiradi	Fanlararo hamkorlikni mustahkamlab, innovatsion loyihalarni tezlashtiradi
Milliy terminologiya tizimining ahamiyati	Ona tilda fan rivojini ta’minlab, mustaqil ilmiy maktablar shakllanishiga zamin yaratadi	Milliy ilmiy mustaqillikni ta’minlaydi
Terminologiyaning istiqbolli yo’nalishlari	Sun’iy intellekt, avtomatik tarjima tizimlari, raqamli leksikografiya bilan integratsiya	Raqamli til resurslari va sun’iy intellekt bilan uyg’unlashgan holda rivojlanadi



Ushbu xususiyatlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, ilmiy terminologiya zamonaviy ilm-fan rivoji uchun zaruriy nazariy va amaliy negizdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR


Xulosa qilib aytganda, terminologiya tilshunoslik nuqtai nazaridan terminlarning umumiy leksikaga nisbatan qat'iy belgilangan tushunchalarni ifodalashi bilan ajralib turadi. Terminlar fonetik, morfologik va sintaktik jihatdan ilmiy til qonuniyatlariga asoslanadi va ularning qo'llanilishi mazmunan aniqlik, izchillik va mantiqiylik talablariga javob berishi zarur.

Ilmiy terminologiya – har qanday fan sohasida bilimni ifoda etish, tarqatish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy til vositasi sanaladi. Uning mavjudligi fanlararo anglashuv, ilmiy muloqot va xalqaro miqyosdagi tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ilmiy terminlar orqali nazariy tushunchalar standartlashtiriladi, izchil ifodalanadi va amaliyotga tatbiq etiladi.

Milliy tilda mukammal ilmiy terminologiya tizimining shakllanishi fanning ona tilda rivojlanishini ta'minlaydi, milliy ilmiy tafakkurning mustahkamlanishiga zamin yaratadi va mustaqil ilmiy maktablarning vujudga kelishiga imkon beradi. Shu sababli, ilmiy terminologiyani rivojlantirish, uni fan, ta'lim va texnologiya sohalariga samarali tatbiq etish – zamonaviy ilmiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vyuster, E. (1979). *Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie*. Wien: Springer-Verlag.
2. Felber, H. (1984). *Terminology Manual*. Paris: UNESCO – INFOTERM.
3. Lotte, D.S. (1961). *Osnovy postroeniya nauchno-tekhnicheskoy terminologii*. Moskva: AN SSSR.
4. Lopatov, V.N. (2000). *Lingvisticheskie osnovy terminologii*. Moskva: Flinta – Nauka.
5. Kaydalova, V.M. (2013). *Terminologiya kak lingvisticheskaya disziplina*. Moskva: IKTs «Mart».
6. Xodjayeva, M.M. (2020). Ilmiy terminlarning milliy tilda shakllanish xususiyatlari // *O'zbek tili va adabiyoti*. – №3. – B. 45–50.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti. (2022). *Ilmiy-texnik atamalar lug'ati*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
8. Sharipova, G. (2021). Termin yaratishda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi // *Filologiya masalalari*. – №2. – B. 67–71.
9. Komilov, N. (2019). Ilmiy uslub va terminologiya // *Til va adabiyot ta'limi*. – №4. – B. 88–91.
10. UNESCO. (2005). *Guidelines for Terminology Policies: Formulating and Implementing Terminology Policy in Language Communities*. Paris: UNESCO Publishing.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100